

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

4-son (6-jild)

**2026**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 4 (6) – 2026*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2026**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА .....	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI .....	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА .....	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIIY YANGILANISH .....	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ .....	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR .....	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIIY YUKSALISH UYG'UNLIGI .....	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI .....	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI .....	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI .....	86-90

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025) .....	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI .....	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI .....	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI .....	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI .....	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL .....	141-154

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI .....	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR .....	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI" .....	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE" .....	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

<i>Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li</i> IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI: FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB TALQINLARI.....	211-215
<i>Rustamova Madina</i> OMMAVIY MANIPULYATSIIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI: TAHDIDLAR VA OQIBATLAR.....	216-220
<i>Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIIYASI.....	221-225

#### **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI .....	226-232
<i>Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo</i> ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL .....	233-241
<i>Quvvatova Shaxlo Choriyevna</i> XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU'LASI” ASARI TAHLILI.....	242-246
<i>Elmuratova Zamira Xodjamuratovna</i> NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI.....	247-251

#### **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

<i>Shayzakov Shodiyor Ibragimovich</i> QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUIJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI.....	252-261
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	262-269
<i>Аминова Наргиза</i> ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ: МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ .....	270-277
<i>Amirov Agzamxon Aktamovich</i> QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI.....	278-283
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI: ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI.....	284-294
<i>Kabilov Sardor Asrolovich</i> JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI .....	295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH .....	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ .....	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI .....	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI .....	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH .....	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION .....	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOYIY ASOSLARI .....	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

**Received:** 16 March 2026

**Accepted:** 01 April 2026

**Published:** 15 April 2026

*Article / Original Paper*

## **THE ROLE OF STATE ARCHIVE DOCUMENTS IN STUDYING THE HISTORY OF TRADE IN UZBEKISTAN**

**Muminova Gavkhar Esanovna**

Leading Researcher at the Institute of History, AS RU

Turdiboeva Gulmira Dilmurodovna

Listener (Cadet) of the Academy of the MIA

**Abstract.** This article analyzes the role of state archive documents in studying the history of trade in Uzbekistan from a source studies perspective. Based on archival materials, the formation of the trade system, its stages of development, and its economic and social significance are highlighted. The study evaluates the types of documents preserved in central and local archives, their content, reliability, and scientific value. In addition, the expanded opportunities for using archival sources during the independence period and actual issues of their integration into scientific research are examined.

**Keywords:** Uzbekistan, history of trade, state archives, archival documents, source studies, economic history, statistical data, independence period.

---

## **O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUIJATLARINING O'RNI**

**Mo'minova Gavxar Esanovna,**

O'Z FA Tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi

Turdiboyeva Gulmira Dilmurodovna

IIV Akademiyasi tinglovchisi

E-mail: [g.muminova@mail.ru](mailto:g.muminova@mail.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston savdo tarixini o'rganishda davlat arxivlari hujjatlarining o'zni manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Arxiv materiallari asosida savdo tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va uning iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda markaziy va mahalliy arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarning turlari, ularning mazmun-mohiyati, ishonchlilik darajasi va ilmiy qiymati baholanadi. Shuningdek, mustaqillik davrida arxiv manbalardan foydalanish imkoniyatlari kengaygani va ularni ilmiy tadqiqotlarga jalb etishning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, savdo tarixi, davlat arxivlari, arxiv hujjatlari, manbashunoslik, iqtisodiy tarix, statistik ma'lumotlar, mustaqillik davri.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N12>

**Kirish.** Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida tarixiy jarayonlarni chuqur va xolisona o'rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekistonning savdo tarixi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini, ichki va tashqi aloqalar tizimini hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Savdo munosabatlari qadimdan Markaziy Osiyo hududida shakllanib, Buyuk Ipak yo'li orqali xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojiga xizmat qilgan. Shu bois, savdo tarixini

o'rganish nafaqat iqtisodiy, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan ham keng qamrovli tadqiqotni talab etadi.

Mazkur jarayonda davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar muhim manba sifatida alohida o'rin tutadi. Arxiv materiallari tarixiy voqealar va jarayonlarning ishonchli guvohi bo'lib, ularning ilmiy tahlili orqali savdo tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, savdo siyosati va iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Davlat arxivlarida jamlangan statistik ma'lumotlar, rasmiy hujjatlar, savdo hisobotlari, shartnomalar va boshqa manbalar tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Mustaqillik yillarida arxiv tizimining rivojlanishi, hujjatlarning ochiqligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi tarixiy tadqiqotlarning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, arxiv manbalariga asoslangan tadqiqotlar orqali O'zbekiston savdo tarixining ilgari yetarlicha o'rganilmagan jihatlarini aniqlash, yangi ilmiy xulosalar chiqarish va tarixiy haqiqatni tiklash imkoniyati kengaydi.

Shu munosabat bilan, davlat arxivlari hujjatlarining O'zbekiston savdo tarixini o'rganishdagi o'rni va ahamiyatini manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mustaqillik davri savdo tarixini yozishda asosan O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA) va viloyatlarning davlat arxivlari hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, Ochiq va yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlar, birlashmalar, fondlar, xolding va konsernlar shaklidagi tashkilotlar, Savdo-iqtisodiyot yo'nalishidagi OTM va ilmiy tashkiloti, yirik savdo bozorlari idoraviy arxivlarini fond hujjatlaridan manba sifatida foydalanildi.

O'zbekiston Milliy arxivining M-6-fond (Oltin qazib olish va olmoslarni qayta ishlash bo'yicha korxonalar O'zbekiston assosiatsiyasi "Uzalmazzoloto"), M-8-fond (Paxta xomashyosini qayta ishlash va paxta mahsulotlarini sotish bo'yicha "Uzgostxlopkopromsbyit" O'zbekiston davlat-aksiyadorlik assosiatsiyasi), M-9-fond (O'zbekiston Respublikasi davlat konsernining qishloq xo'jaligi qurilishi bo'yicha korxonalar va tashkilotlarining tashqi iqtisodiy faoliyat assosiatsiyasi (VEA "Uzvneshnekonommash"), M-10-fond ("O'zbekmebel" O'zbekiston davlat aksiyadorlik birlashmasi), M-11-fond ("O'zavtotrans" O'zbekiston davlat-aksiyadorlik avtomobil transporti korporatsiyasi), M-15-fond (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi), M-16-fond (O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi "Uzparrandasanoat" parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar assosiatsiyasi ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati), M-18-fond (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi), M-20-fond ("Xorijiy investitsiyalar agentligi" yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati), M-25-fond ("O'zmevasabzavotuzumsanoat-xolding" xolding kompaniyasi), M-37-fond (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi), M-43-fond (Yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar O'zbekiston assosiatsiyasi ("Uzbeklegprom"), M-45-fond ("O'zulgurjibirjasavdo" O'zbekiston respublika ulgurji va birja savdosi aksiyadorlik assosiatsiyasi) M-47-fond ("O'zneftgazstroy" aksiyadorlik kompaniyasi ("Uzneftgaz" tarkibidagi milliy xolding kompaniya), M-51-fond ("Uzselxozmash-xolding" kompaniyasi), M-52-fond ("O'zbekipagi" Respublika assosiatsiyasi), M-67-fond (Xususiy tadbirkorlik va kichik

biznesni qo'llab-quvvatlash fondi (Biznes-fond), M-74-fond (O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki), M-82-fond ("O'zgo'shtsutsanoat" davlat aksiyadorlik uyushmasi), M-83-fond (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi "O'zgo'shtsutsanoat" Respublika ishlab chiqarish birlashmasi), M-127-fond (O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkor" respublika aksiyadorlik-tijorat banki), M-131-fond ("Ipak yo'li" aksiyadorlik innovasion-tijorat banki), M-132-fond ("Uzpisheprom" oziq-ovqat sanoati konserni), M-134-fond (Qandolat, choy va pivo-salqinsiz ichimliklar sanoati korxonalarini assotsiatsiyasi "Pishyeprom"), M-139-fond ("Mahalliy sanoat" davlat korporatsiyasi), M-160-fond (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Monitoring instituti), M-166-fond ("Oziq-ovqatxolding" xolding kompaniyasi) va h.k. fond hujjatlari O'zbekiston savdo tarixining mustaqillik davrini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ro'yxatdagi fondlarda O'zbekistonning iqtisodiy sektorida turli yo'nalishlarni tartibga solish va rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar saqlanadi. Ushbu hujjatlar yordamida davlat va xususiy sektordagi moliyaviy, savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi va investitsiya sohalaridagi tashkilotlarning faoliyati, ularning ichki va tashqi iqtisodiy aloqalardagi ahamiyati, shuningdek, bu sohalarida mavjud bo'lgan muammolar haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish mumkin.

O'zbekiston Milliy arxivining M-37-fondi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi) savdo tarixining mustaqillik davri manbashunosligida muhim o'rinni egallaydi. Mazkur fond Vazirlar Mahkamasining hujjatlari yig'ma jildlaridan iborat bo'lganligi sababli aynan turli ministrlar, birlashmalar, savdo uyushmalarining turli mazmundagi yozishmalari, sohaga doir huquqiy hujjatlari, yig'ilish bayonnomalari, yillik hisobotlari, dasturlari, rejalari va h.k. ma'lumotlar mavjud. Aynan ular orqali O'zbekiston savdosining ko'lami, ishlab chiqarish hajmi va markazlari, savdo turlari, chiqarilgan va kiritilgan mollar, pul muomalasi, savdo markazlari, logistika masalalariga oid ma'lumotlar ilmiy muomalaga tortiladi. Xususan, M-37 fondning 1-ro'yxat, 2192, 2782, 2197, 2781, 2783, 2778, 3190 va h.k. yig'ma jildlari ma'lumotlaridan manba sifatida foydalanish mumkin[1]. Masalan, mazkur fondning 2782-yig'ma jildida O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasining tovar tashish bo'yicha hisobotlari keltirilsa[2], 2197-yig'ma jildida Toshkent shahar hokimiyati savdo, xizmat ko'rsatish sohasi, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish departamenti ma'lumotlari berilgan[3].

Mazkur fondning 2781-yig'ma jildida O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi ("O'zkontrakt") bilan savdo shartnomasi[4], O'zbekistonning Yevropa hamjamiyati, Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi, atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati — Oraliq bitimi savdo va xarid bitimi haqida,[5] savdo, bojxona qonunini qo'llash to'g'risida protokollar[6] jamlangan va ular savdo tarixini shakllantirishda qimmatli manba hisoblanadi. Xususan, fondning 2783-yig'ma jildida O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalar, 1996-yili bu davlatning "Misubishi", "Misui", "Shimizu" kabi kompaniyalar bilan hamkorlikdagi savdo shartnomalari[7], Yaponiya iqtisodiy tashkilotlari federatsiyasi bilan bitimlari, port (logistika markazi) qurilishi kabi masalalarga oid hujjatlar jamlangan.

Savdo tarixida eksport masalasi muhim yo'nalish sanaladi. M-37-fond, 1-ro'yxat, 2778-yig'ma jildida 1997-yil "O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini rivojlantirish davlat dasturi" bilan bog'liq tadbirlar bayonnomalari, 1996-yilda eksport hajmi, (2,6 milliard dollarni tashkil etgan), O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining eksport ma'lumotlari, rejalashtirilgan dastur chora-tadbirlarini amalga oshirish eksport hajmini 2000-yilga kelib 1996-yilga nisbatan 1,7 baravarga oshirishga qaratilgan dastur loyihasi xususida ma'lumotlar

jamlangan[8]. Shuningdek, bu fondan aksiyadorlik jamiyatlarining tijorat mahsulotlari hajmi, ishlab chiqarish o'sish sur'ati, iste'mol tovarlari xususida ham manbashunoslik materiallarini uchratish mumkin (3190-yig'ma jild)[9].

Savdoda oziq-ovqat mahsulotlari savdosi barcha davrlarda o'z dolzarbligini saqlab qolgan. M-37-fond, 1-ro'yxat, 2192-yig'ma jildida 1997-yil 29 xil oziq-ovqat mahsulotlari ayrim turlarini sotish bilan bog'liq huquqiy hujjatlar, mahsulot chakana narxi savdo ustamasini 10–20 foizgacha belgilab sotilganligi, shuningdek, 33 foiz savdo obyektida (483 tadan 164 tasida) qoidabuzarlik holatlari[10], 1997-y. 581,1 ming so'mlik mahsulotlar noqonuniy sotilganligi, 1997-y. 1515 reydda 264 ta savdo qoidalari buzish holati aniqlanganligiga doir ma'lumotlar mavjud[11].

**Natijalar va muhokama.** O'zbekiston davlat arxivlarida savdo yo'nalishi tarixiga doir saqlanayotgan hujjatlarni qisman o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, tarixchilar tomonidan savdo sohasining na sovet davri, na mustaqillik davri tarixi tadqiq etilmagan. Chunki davlat arxivi hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlar davriy nashr materiallarida ham, dissertatsiya ishlarida ham, darsliklarda ham izchil ketma-ketlikda yoritilmagan. Birgina misol, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish markazlari, mahsulotlarning tovar sifatidagi o'rni va ularni sotish muammolari, eksport import masalalari va boshqa shu kabi muammolar birlamchi manbalar yordamida o'rganilmagan.

O'z MAning M-134-fondida qandolat, choy va pivo-salqinsiz ichimliklar sanoati korxonalari assosiyatsiyasi («Oziqovqatsanoat») hujjatlari saqlanib, bu birlashma asosan oziq-ovqat sanoati korxonalarini birlashtiruvchi asosiy tarmoq tuzilmalaridan biridir. Fond hujjatlarida qayd etilishicha, assosiyatsiya O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining 2004-yil 26-apreldagi PQ-3420-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli hujjatlari asosida tashkil etilgan. Dastlab ushbu uyushma davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan. U «O'zoziqovqatsanoat» xolding kompaniyasi tarkibidagi tarmoqlarni muvofiqlashtiruvchi tuzilma sifatida ish boshlagan. Ushbu tarixiy jarayonlarga tegishli ma'lumotlar M-134 fondi hujjatlarida to'plangan.

Xususan, mazkur fondda «Oziqovqatsanoat» uyushmasi tarkibiga kiruvchi «Toshkent pivo zavodi» jamoa korxonasi, «Toshkent «Lazzat» alkogolsiz ichimliklar zavodi» ochiq turdagi AJ, Toshkent mineral suvlar zavodi, «Toshkent chanqovbosdi ichimliklar zavodi» ochiq turdagi AJ, «Koka-kola — Toshkent ichimligi» qo'shma korxonasi, Qibray chanqovbosdi ichimliklar kombinati, «Andijon alkogolsiz ichimliklar kombinati» ochiq turdagi AJ, «Buxoro pivo zavodi» ochiq turdagi AJ, «Namangan chanqovbosdi ichimliklar kombinati» ochiq turdagi AJ, «Samarqand pivo zavodi» ochiq turdagi AJ, «Farg'ona chanqovbosdi ichimliklar zavodi» ochiq turdagi AJ, «Hamza mineral suvlar zavodi» ochiq turdagi AJ, «Qo'qon pivo zavodi» ochiq turdagi AJ, «Nukus pivo zavodi» ochiq turdagi AJ, «Chortoq oziq-ovqat konsentratlari tajriba zavodi» ochiq turdagi AJ, «Samarqand «Narziya» qandolatchilik fabrikasi» ochiq turdagi AJ, «Toshkent «O'rtoq» qandolatchilik fabrikasi» ochiq turdagi AJ, «Namangan «Dilorom» qandolatchilik fabrikasi» ochiq turdagi AJ, «Samarqand choy qadoqlash fabrikasi» ochiq turdagi AJ, «Toshkent oziq-ovqat konsentratlari kombinati» ochiq turdagi AJ, «Oziqovqatsanoat» xo'jalik hisobidagi loyiha-konstruktorlik byurosi, Xorazm qurilayotgan qand-shakar zavodi direksiyasi kabi tashkilotlarning ishlab chiqargan mahsulot turlari, savdo shartnomalari, eksport va import faoliyati, ularning bozor tashkilotlari bilan hamkorligi kabi masalalarga oid hujjatlar saqlanib, ularning savdo tarixi manbashunosligida o'rni nihoyatda katta.

O'zbekiston jahon oltin savdosida o'ziga xos o'rinni egallab, asosiy oltin eksportyorlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatda oltin va uran qazib olish sanoatining rivojlanishida yangi tarixiy bosqich boshlandi. Bu davr mobaynida Navoiy KMKda Uchqudukda oltin ajratib olish majmuasi, gidrometallurgiya zavodi va Ko'kpatas hamda Davg'iztovda oltin konlarining qurilishi nihoyasiga yetkazildi va ular ishga tushirildi, "Zarafshon-Nyumont" qo'shma korxonasi barpo qilindi, emulsiyali portlovchi moddalar ishlab chiqaruvchi zavod qurildi. Kombinatda ishlab chiqarilgan oltin yombilar. Tarkibida oltin mavjud bo'lgan ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha Navoiy KMK ko'p yillar mobaynida yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan barqaror faoliyat ko'rsatdi. Mamlakat mustaqilligi yillarida oltin ishlab chiqarish 1,5 baravar ko'paydi. Ishlab turgan korxonalarini texnik qayta jihozlash, yangi navbatlarni qurish, shuningdek, oltin ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beruvchi eng yangi ilmiy-texnik tadqiqotlar joriy etildi.

2023-yilning dastlabki 7 oyida 5,6 mlrd dollarlik oltin sotgan. 2024-yilning mart oyida mamlakat oltin sotish bo'yicha dunyoda yetakchilikni saqlab qoldi. Bundan tashqari, Markaziy bank aholi uchun oltin quymalarni (5-50 gr) tijorat banklari orqali sotuvga chiqargan. O'zbekiston oltin savdosiga tegishli ma'lumotlar O'z MAning M-6-fondida (Oltin qazib olish va olmoslarni qayta ishlash bo'yicha korxonalar O'zbekiston assosiativasi "Uzalmazzoloto") saqlanayotgan hujjatlarda to'plangan bo'lib, mazkur yig'ma jildlarning savdo tarixi manbashunosligida o'rni yuqori.

Shuningdek, O'z MA fondlaridan O'zbekistonda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari eksporti, ya'ni ularni xorijiy davlatlarga sotishga doir ma'lumotlarni topish mumkin. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining 70% dan ortig'iga xizmat ko'rsatish bo'yicha institutsional vazifa NBU'ning xalqaro vakillik tarmog'i sifatiga chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda NBU Markaziy Osiyodagi eng yirik vakillik tarmog'iga ega bo'lib, u dunyoning 80 mamlakatidagi 671 ta bankni o'z ichiga oladi. Davlat arxivlarida mazkur bank, qolaversa, boshqa banklar va ularning savdoni tashkil etishdagi o'rni masalasiga doir ma'lumotlar mavjud.

Savdo tarixini ishlab chiqishda o'z o'rnida viloyatlardagi davlat arxivi hujjatlarining ham manba sifatidagi o'rni katta. Har bir viloyatdagi davlat arxivlarida, qolaversa, hokimliklar qoshidagi joriy arxivlarda ushbu mavzu doir nihoyatda xilma-xil ma'lumotlar mavjud. Masalan, mustaqillikning dastlabki 10 yilliklari tarixi bo'yicha savdo tashkilotlari, ishlab chiqaruvchi korxonalarining faoliyatiga oid ma'lumotlarni davlat arxivlari hujjatlarida uchratish mumkin.

Idoraviy arxivlar. O'zbekiston mustaqillik davri savdosi tarixini yaratishda turli tashkilotlarning idoraviy arxivlari materiallari ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Masalan, ushbu arxivlarda asosan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, savdo-iqtisodiy islohotlarga oid qarorlar, davlat dasturlari, shu bilan birga, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, savdo aylanmasi statistikasi, eksport-import operatsiyalari bo'yicha ma'lumotlar, soliq tushumlari va moliyaviy hisobotlar kabi tahliliy ma'lumotlar mavjud. Aksiyadorlik jamiyatlari va xoldinglar arxivlarida ta'sis hujjatlari, ustavlar, aksiyadorlar yig'ini bayonnomalari, investitsiya loyihalari, yillik hisobotlar kabi ma'lumotlarni olish mumkin. Shuningdek, mazkur arxivlardan savdo shartnomalari, hamkorlik bitimlari, litsenziya va sertifikatlar, tekshiruv dalolatnomalari hamda idoraviy buyruq va qarorlarni ham topish mumkin. Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar

arxivlaridan esa savdo va iqtisodiyot sohasida mutaxassislar tayyorlash masalasi, sohadagi tadqiqot ishlari bo'yicha ma'lumot to'planadi.

Xalqaro savdoni tartibga soluvchi **xalqaro tashkilotlar** (ICT, WTO, UNCTAD, OECD), xalqaro moliyaviy iqtisodiy tashkilotlar (IMF, WB, IFC)ning rasmiy hujjatlari ham savdo tarixi manbashunosligida muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat arxivlari hujjatlari O'zbekiston savdo tarixini o'rganishda eng muhim va ishonchli manbalardan biri hisoblanadi. Arxiv materiallari asosida savdo tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, ichki va tashqi savdo aloqalarining xususiyatlari hamda iqtisodiy siyosatning yo'nalishlarini ilmiy asosda tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, rasmiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar va tarixiy yozuvlar savdo munosabatlarining real holatini aks ettiruvchi asosiy daliliy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, markaziy va mahalliy arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar tarkibi va mazmuni jihatidan xilma-xil bo'lib, ular tarixiy voqealarning turli qirralarini yoritishda muhim ilmiy qiymatga ega. Shu bilan birga, arxiv hujjatlarining ishonchliligi, tizimliliigi va manbashunoslik jihatdan puxta tahlil qilinishi tarixiy tadqiqotlarning aniqligi va haqqoniyligini ta'minlaydi.

Mustaqillik yillarida arxiv tizimining modernizatsiya qilinishi, hujjatlarning raqamlashtirilishi va ochiqlik darajasining oshishi ilmiy izlanishlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi. Bu esa O'zbekiston savdo tarixini yanada chuqurroq o'rganish, ilgari noma'lum bo'lgan ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish hamda tarixiy jarayonlarga yangicha yondashuv asosida baho berishga xizmat qilmoqda.

Shu asosda, davlat arxivlari hujjatlaridan samarali foydalanish, ularni tizimli ravishda tahlil qilish va ilmiy tadqiqotlarga keng jalb etish O'zbekiston savdo tarixini har tomonlama o'rganishning muhim sharti sifatida e'tirof etiladi. Kelgusida arxiv manbalarini raqamlashtirish, ularning ilmiy muomaladagi ulushini oshirish hamda zamonaviy tadqiqot metodlarini qo'llash ushbu yo'nalishdagi izlanishlarning samaradorligini yanada oshiradi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўз МА,, М-37-жамғарма, 1-рўйхат, 2192, 2782, 2197, 2781, 2783, 2778, 3190 йиғма жилдлар.
2. Ўз МА, М-37-жамғарма, 1-рўйхат, 2782-йиғма жилд, 12-варақ.
3. Ўз МА, М-37-жамғарма, 1-рўйхат, 2197-йиғма жилд, 97-192-варақ.
4. Ўз МА, М-37-жамғарма, 1-рўйхат, 2781-йиғма жилд, 85-варақ.
5. Ўз МА, М-37-жамғарма, 1-рўйхат, 2781-йиғма жилд, 109-варақ.
6. Ўз МА, М-37-жамғарма, 1-рўйхат, 2781-йиғма жилд, 136-варақ.
7. Ўз МА, М-37-жамғарма, 1-рўйхат, 2783-йиғма жилд, 163-варақ.
8. Ўз МА, М-37-жамғарма, 1-рўйхат, 2778-йиғма жилд, 98-варақ.
9. Ўз МА, М-37-жамғарма, 1-рўйхат, 3190-йиғма жилд, 88-89-варақлар.
10. Ўз МА, М-37-жамғарма, 1-рўйхат, 2192-йиғма жилд, 33-варақ.
11. Ўз МА, М-37-жамғарма, 1-рўйхат, 2192-йиғма жилд.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).